

**GINJKO BILOBA L. O`SIMLIGINING BOTANIK TAVSIFI,  
TARQALISHI VA AHAMIYATI.  
БОТАНИЧЕСКОЕ ОПИСАНИЕ, РАСПРОСТРАНЕНИЕ И  
ЗНАЧЕНИЕ GINKGO BILOBA L.  
BOTANICAL DESCRIPTION, DISTRIBUTION AND IMPORTANCE  
OF GINKGO BILOBA L**

*Axmadjonova Marg'uba Avazbek qizi  
Biologiya yo'nalishi 1-bosqich  
Email: [@axmadjonova71@gmail.com](mailto:@axmadjonova71@gmail.com)*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Ginkgo biloba o'simligining botanik tavsifi, uning biologik xususiyatlari, ekotizimdagi roli va ilmiy ahamiyati haqida hamda uning morfologik va anatomiq xususiyatlari, vegetativ va reproduktiv tizimlari, shuningdek uning dunyo bo'ylab tarqalishi va ekolokik ahamiyati haqida bat afsil ma'lumotlar keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** Ginkgo biloba, monotip, qubba, mikrostorobil, mikrosporofil, «kumushrang o'rik» yoki «kumushrang meva», antibakterial, antifungal

**Аннотация:** В статье дается ботаническое описание растения гинкго билоба, его биологические свойства, роль в экосистеме и научное значение, а также подробная информация о его морфологических и анатомических характеристиках, вегетативной и репродуктивной системах, а также его распространении в мире и экологическом значении.

**Ключевые слова:** Гинкго билоба, монотипный, куполообразный, микростробил, микроспорофилл, «серебряный абрикос» или «серебряный плод», антибактериальное, противогрибковое.

**Abstract:** This article provides a botanical description of the Ginkgo biloba plant, its biological properties, role in the ecosystem, and scientific significance, as well as detailed information on its morphological and anatomical characteristics,

## ***Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi***

*vegetative and reproductive systems, as well as its worldwide distribution and significance.*

**Key words:** *Ginkgo biloba, monotypic, dome, microstrobil, microsporophyll, "silver apricot" or "silver fruit", antibacterial, antifungal.*

**Kirish.** Ginkgo biloba, dunyo florasida eng qadimiy va noyob o'simliklardan biri bo'lib, faqat bir xil turi mavjud bo'lgan Ginkgoaceae oilasiga mansubdir. Uning tarixiy va ilmiy ahamiyati juda katta. Ginkgo biloba o'simligi qadimda 200 million yil oldin mavjud bo'lgan va hozirda faqatgina ayri *ecological* hududlarda uchraydi. Bu o'simlikning o'ziga xos morfologiyasi va biologik xususiyatlari bor, shuningdek, uning ekologik va tibbiy ahamiyati ham keng tarqalgan. Ginkgo biloba o'simligining morfologik xususiyatlari. Ginkgo biloba o'simligi 20-30 metr balandlikka yetadigan daraxt bo'lib, uning barglari igna yoki yelpigich shaklida bo'ladi. Barglarning kuzgi davrdagi oltin rangga o'zgarishi o'simlikni yanada go'zal qiladi. O'simlikning ildiz tizimi chuqur bo'lib, yaxshi rivojlangan va yer osti qismidagi suvni yaxshi o'zlashtiradi. Reproduktiv tizimi. Ginkgo biloba o'simligi ayrim jinsli o'simlik bo'lib, erkak va ayol o'simliklar alohida o'sadi. Erkak o'simliklar chang ishlab chiqaradi, ayol o'simliklar esa urug'lar hosil qiladi. Ushbu reproduktiv tizimning o'ziga xosligi, uning evolyutsion tarixiga aloqador bo'lib, boshqa o'simliklar bilan taqqoslaganda juda farq qiladi.

## **ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОДОЛОГИЯ / LITERATURE REVIEW)**

Ginkgodoshlar - oilasiga bitta monotip relikt tur ginkgo biloba kiradi. Oilaning 17 ga yaqin turkumining vakilari qazilma holda topilgan. Ular orasida eng qadimgisi bu sfenobayeralar bo'lib , perm davriga oid qatlamlardan topilgan . Bo'r davridan boshlab tabiatda ginkgodoshlar kamayib boradi. Tabiiy sharoitda ginkgo faqat Sharqiy Xitoyning Tyan-mu Shan tog'ida saqlanib qolgan. Ginkgoning ikkinchi turi Xitoydan topilgan. Ginkgo so'zi yapon tilidan olinga. bo'lib , “kumushrang o'rik “ yoki “kumushrang meva “ degani.Bu o'simlik Yaponiya, Xitoy, Koreada muqaddas daraxt sifatida ziyoratgoh joylarda , xiyobonlarda o'stililadi. 1730-yillarda u G'arbiy Yevropaga , 1780-yillarda esa Shimoliy Amerikaga keltirilgan. K. Linney bu o'simlikka

## ***Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi***

ginkgo biloba deb 1771-yilda ilmiy nom bergan. Bu ösimlik juda kõp davlatlarda shu jumladan Özbekistonda ham 1920-yildan boshlab manzarali daraxt sifatida östiriladi. Eng dastlab 1870-yilda Samarqandga olib kelingan. Ösimlik Yaponiyada madaniylashtirilgan. Ginkgo bilobaning - balandligi 30 metrdan oshadi. Qishda barglarini tõkib yuboradigan siyrak shox -shabbali daraxt. Barglari oddiy, uzun bandli, yaprogi yelpig'ichsimon, ikki bo'lakli. Poyasining o'zak qismi kam taraqiy etgan. Lekin kambiy va po'stloq parenximasi yaxshi rivojlangan. Ginkgo ignabargli daraxtlardan farqli ravishda smola hosil qilmaydi.

## **NATIJALAR VA MUHOKAMA (РЕЗУЛЬТАТЫ И ОБСУЖДЕНИЕ / RESULTS AND DISCUSSION**

Ginkgo – ikki uyi o'simlik bo'lib , qulay sharoitda o'simlik 20 30 yoshga yetib urug' yoki chang beradi. Ginkgolarda megastrobil va mikrostrobil qubbalar qisqargan shoxlarda joylashgan . Qubba-strobil ko'pchilik yuksak ösimliklarning kõpayish organi hisoblanadi. Shakli özgargan (yiriklashgan ) novda . Qubba maxsus barglar sporofillardan shakllanadi. Ignabargli ösimliklarning qubalariga ba'zan qubbalar majmui sifatida qaraladi. Yopiq urug'lilarga xos bo'lgan gul qubbaning bir xili sanaladi. Mikrostrobilari sirg'asimon , uning ichida mikrosporofillar spiral holda joylashgan . Mikrosporofillari qisqa bandli , har bittasida 2 ta , ba'zan 3- 4 ta mikrosporangiy (changdonlari) joylashgan . Mikrosporangiylarda hosil boladigan mikrosporalar (changlar) sagovniklarning mikrosporasiga o'xshaydi. Mikrosporaning o'sib, spermiyli gametofitga aylanishi mikrosporangiyidan ajralib chiqmasdan avval uning ichida boradi. Tayyor mikrospora shamol yordamida tarqalib urug'kurtakka tushadi. Mikrospora bahorda urug'kurtakning chang kamerasiga tushgandan so'ng undan ikkita harakatchan spermatazoid hosil bo'ladi. Spermatazoid tuxum hujayrani urug'lantirgandan so'ng zigota , undan keyin murtak hosil bo'ladi. Urug'kurtakning integumentidan urug' po'sti hosil bo'lib uning tashqi po'sti yumshoq etli qavatga aylanadi. Urug' murtagining taraqqiyoti ko'pincha urug' yerga to'kilgandan so'ng boshlanadi. Bu sagovniklar va ginkgolar taraqqiyotidagi o'xshash jihat. Ginkgoning urug'ida tinim davri bo'lmaydi. Ginkgo urug'i yordamida va qalamchasidan ko'payadi . Urug'inining tashqi yumshoq etli qavati istemol qilinadi.

## ***Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi***

---

Tibbiyotdagi qadimgi va boy bilimlari bilan mashhur bo'lgan Sharq mamlakatlarid ginkgo biloba barglariga asoslangan preparatlar uzoq vaqt davomida tana va ruhning barcha turdag'i kasalliklarini davolash uchun ishlatalig'an. Ginkgo biloba tanaga ajoiyib tasir ko'rsatadi. Teri soch va ko'zlarni sog'ligini saqlaydi, yurak -qon tomir tizimini himoya qiladi, libiddoni oshiradi, konsentratsiyani yaxshilaydi. Zamonaviy fatmasevtika olami uchun bilobaning shifobaxsh xususiyatlari shifokor Engelbert Kaempfer tomonidan kashf etilgan. 1965 -yilda botanik V. Shvabe o'simlikning barglaridan dorivor ekstrakt yaratdi. Noyob o'simlik keksalikka yaqinlashishni kechiktirishga va tanani yoshartirishga qodir. Undan erkaklardan potensialni oshiradigan va ayollardagi ajinlarni yumshata oladigan dorilar tayyorlanadi. O'simlikning foydali xususiyatlariga : Antibakterial va antifungal ta'sir, saraton kasalligiga qarshi kurashish qobiliyati, xotira va hayotiylikni yaxshilash, spirtli ichimliklarni tasirini bostirish kabilalar ham kiradi. Zamonaviy tehnologiyalar orqali ginkgoning ekstrakti ishlab chiqildi.

**XULOSA:** Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Ginkgo bloba o'simligi klinik qo'llashda u asosan miya va periferik qon aylanish tizimining qon aylanishining buzilishlarida qo'llaniladi. Misol uchun, u o'tkir va surunkali miya disfunktsiyasi va o'tkir va surunkali insult natijasida kelib chiqqan e'tiborsizlik, diqqatni yo'qotish va demans kabi oqibatlar uchun ishlatalishi mumkin. Serebrovaskulyar kasalliklardan tashqari, qulqondagi qon oqimi va nevrologik kasalliklar, masalan, tinnitus, vertigo va eshitish qobiliyatini yo'qotish uchun ham qo'llanilishi mumkin. Bundan tashqari, u ko'zning qon aylanishini yaxshilaydi. Misol uchun, ba'zi bemorlarda diabet bor. Ushbu preparat diabetdan kelib chiqqan retinopatiya va neyropatiyani yaxshilash uchun ham ishlatalishi mumkin. Bu periferik qon aylanish tizimining aylanishini yaxshilashi mumkin. U barcha turdag'i arteriyalarning tiqilishi, sovuq qo'l va oyoqlar, uyqusizlik va og'riqlar uchun ishlatalishi mumkin. Bir so'z bilan aytganda, Ginkgo biloba ekstrakti keng qo'llaniladigan doridir. U turli xil serebrovaskulyar kasalliklarni, ayniqsa miya qon aylanishining buzilishi va nevrologik qon aylanishining buzilishlarini davolash uchun ishlatalishi mumkin. Bu erkin radikallarni yo'q qilishi va qon aylanishini yaxshilashi mumkin.

**ADABIYOTLAR RO'YXATI (REFERENCES)**

- 1.O'zbekiston yuksak o'simliklarining zamonaviy tizimi. Pratov O'.P. Odilov T.O.
- 2.O'simliklar sistematikasi. Sahobidinnov .S.S
3. H. Kh. Kholmatov, O. A. AHMEDOV, N. A. MUSAYEVA Fundamentals of pharmacognosy and botany, Tashkent 2017.
4. O'zbek botanika terminalogiyasi masalalari - Zokirov Q. Z, Jamolxonov X.A.
5. Universitet ta'limi uchun biologiya va tuproqshunoslik yo'naliishlari bo'yicha o'quv dasturi.

**Vebsayt:**

5. <http://www.ziyonet.uz>
- 6: <http://www.wikipedia.ru>
- 7:<http://www.guldu.ru>